Metodologik jihatdan mazkur tadqiqotda diversifikatsiyalashuv faqat faoliyat turlarini kengaytirish jarayoni sifatida emas, balki tavakkalchiliklarni taqsimlash, resurslarni qayta konfiguratsiya qilish hamda sinergetik qiymat yaratishga qaratilgan kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida talqin etiladi.

Maqolada tahlil bloklari quyidagi mantiqiy ketma-ketlik asosida qurilgan:

- birinchi bosqichda qurilish tarmog'ining makroiqtisodiy holati va tarkibiy tendensiyalari aniqlanadi;
- ikkinchi bosqichda diversifikatsiyaning nazariy determinantlari va ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlar tizimlashtiriladi;
- uchinchi bosqichda korxonada darajasida mahsulot, bozor, moliyaviy, texnologik, xomashyo, mehnat resurslari, innovatsion, tashkiliy, vertikal va gorizontal diversifikatsiya yo'nalishlarining iqtisodiy mazmuni ochib beriladi;
- to'rtinchi bosqichda esa mazkur yo'nalishlar boshqaruv funksiyalari bilan integratsiyada tahlil qilinadi.

Mazkur metodik ketma-ketlik tadqiqot natijalarining izchilligini ta'minlab, ularning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi hamda maqolaning analitik qismida keltirilgan jadval va xulosalarning metodologik poydevorini shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalari diversifikatsiyalashuvi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, raqobatbardoshligini saqlab qolishi hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim strategik vosita hisoblanadi. Bozor konyunkturasi o'zgarishi, talabning pasayishi yoki xomashyo narxlarining oshishi kabi omillar bir yo'nalishga ixtisoslashgan korxonalar uchun yuqori darajadagi xavflarni yuzaga keltiradi. Shu sababli diversifikatsiya ushbu xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Mahsulot diversifikatsiyasi korxonada tomonidan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, mavjud assortimentni kengaytirish hamda mahsulotlarni modifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa iste'molchilar ehtiyojlarini kengroq qamrab olish, bozor ulushini oshirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Texnologik diversifikatsiya ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda energiya tejankor uskunalardan foydalanish orqali mehnat unumdorligini oshirish va tannarxni pasaytirishga qaratilgan. Natijada mahsulot sifati yaxshilanadi va korxonaning raqobat ustunligi mustahkamlanadi.



Bozor diversifikatsiyasi yangi hududiy, mintaqaviy va xalqaro bozorlarga chiqish, eksport geografiyasini kengaytirish hamda yangi segmentlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu esa sotuv hajmini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish va bozor xavflarini taqsimlash imkonini beradi.

Xomashyo manbalari diversifikatsiyasi bir nechta yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish, mahalliy resurslardan foydalanish hamda uzoq muddatli shartnomalar tuzish orqali ta'minot barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ishlab chiqarish uzilishlarining oldini oladi va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Innovatsion diversifikatsiya ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish, yangi texnologiyalar asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish hamda startaplar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa korxonaning texnologik salohiyatini oshirib, uning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Moliyaviy diversifikatsiya turli moliyalashtirish manbalarini jalb qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar emissiyasi yoki kredit resurslaridan foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va kapital aylanishini tezlashtiradi.

Tashkiliy diversifikatsiya boshqaruv tizimini takomillashtirish, yangi biznes birliklari va filiallar tashkil etish, strategik sherikliklar va qo'shma korxonalar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bu esa korxonada faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ichki resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, vertikal diversifikatsiya qiymat zanjiri bo'ylab kengayishni, ya'ni xomashyo tayyorlashdan boshlab tayyor mahsulotni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu nazoratni kuchaytiradi va foyda darajasini oshiradi. Gorizontallik diversifikatsiya esa o'xshash yoki yaqin tarmoqlarda faoliyatni kengaytirish orqali sinergetik samaraga erishish imkonini yaratadi.

Natijada sanoat korxonalari diversifikatsiyalashuv orqali iqtisodiy jihatdan barqaror, innovatsion va yuqori raqobatbardosh subyektlarga aylanadi.

1-jadval. Qurilish sanoati korxonalari diversifikatsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari

№	Yo'nalish nomi	Mazmuni	Afzalliklari	Amalga oshirish usullari
1	Mahsulot diversifikatsiyasi	Yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortimentni kengaytirish	Daromad manbalari ko'payishi, bozor ulushi oshishi	Marketing tadqiqotlari, iste'molchi talabini o'rganish, yangi liniyalar ochish
2	Texnologik diversifikatsiya	Zamonaviy texnologiya va uskunalarni joriy etish	Ishlab chiqarish samaradorligi oshishi, xarajatlar kamayishi	Raqamlashtirish, avtomatlashtirish, modernizatsiya
3	Bozor diversifikatsiyasi	Yangi hududiy va xalqaro bozorlarga chiqish	Eksport hajmi oshishi, xavflarni taqsimlash	Eksport strategiyasi ishlab chiqish, logistika tizimini takomillashtirish
4	Xomashyo manbalari diversifikatsiyasi	Turli yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish	Ta'minot uzilishlari xavfini kamaytirish	Uzoq muddatli shartnomalar, mahalliy resurslardan foydalanish
5	Innovatsion diversifikatsiya	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish	Yuqori qo'shilgan qiymat yaratish	R&D markazlari tashkil etish, startaplar bilan hamkorlik
6	Moliyaviy diversifikatsiya	Turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanish	Moliyaviy barqarorlikni oshirish	Aksiya chiqarish, kreditlar, investitsiya jalb qilish
7	Mehnat resurslari diversifikatsiya	Korxonada xodimlarning kasbiy tarkibini kengaytirish	Mehnat unumdorligini oshirish	Xodimlarni qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ko'p funksiyali ish o'rinlarini yaratish.
8	Tashkiliy diversifikatsiya	Yangi biznes birliklari va filiallar tashkil etish	Boshqaruv samaradorligi oshishi	Xolding tuzilmasi yaratish, outsorsing joriy etish
9	Vertikal diversifikatsiya	Qiymat zanjiri bo'ylab kengayish	Nazorat va foyda oshishi	Xomashyo tayyorlashdan to sotuvgacha bo'lgan jarayonni qamrab olish
10	Gorizontallik diversifikatsiya	O'xshash tarmoqlarda faoliyat boshlash	Sinergetik samara	Birlashish va qo'shib olish (M&A), strategik sheriklik



Mazkur 2-jadvalda Trest 12 AJ qurilish sanoati korxonasining diversifikatsiyalashuvini boshqarish funksiyalari tizimli ravishda ifodalangan. Unda diversifikatsiya jarayonlari faqat faoliyat turlarini kengaytirish bilan cheklanib qolmasdan, balki rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish (motivatsiya) va nazorat funksiyalari orqali kompleks boshqarilishi zarurligi asoslab berilgan.

Qurilish sanoati sharoitida diversifikatsiyalashuv korxonaning bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshiradi, daromad manbalarini kengaytiradi hamda ishlab chiqarish va moliyaviy xatarlarni turli yo'nalishlar o'rtasida taqsimlash imkonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, diversifikatsiyani boshqarish funksiyalarining har biri korxonaga faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, rejalashtirish funksiyasi strategik yo'nalishlarni belgilashga xizmat qilsa, tashkil etish resurslarni optimal taqsimlashni ta'minlaydi, motivatsiya esa inson kapitalining samaradorligini oshiradi, nazorat funksiyasi esa diversifikatsiya jarayonlarining natijadorligini baholash va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Natijada, diversifikatsiyalashuvni boshqarish tizimi korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kompleks boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanadi.

2-jadval. "Trest 12" AJ qurilish sanoati korxonasining diversifikatsiyalashuvini boshqarish funksiyalari

Salohiyat turlari	Boshqarish funksiyalari			
	Rejalashtirish, kengashish va qaror qabul qilish	Tashkil etish, muvofiqlashtirish, tavakkal qilish	Motivatsiya (rag'batlantirish)	Nazorat qilish, tartibga solish, baholash
Maxsulot diversifikatsiyasi	Qurilish-montaj, ta'mirlash, injiniring va servis xizmatlari portfelini tahlil qilish, daromadli yo'nalishlar ulushini belgilash, yangi mahsulot va xizmat turlari bo'yicha investitsion qarorlar qabul qilish.	Har bir mahsulot yo'nalishi bo'yicha mas'ul bo'linmalar va loyiha guruhlarini shakllantirish, texnik talablar va resurslar taqsimotini muvofiqlashtirish, talab pasayishi xatarini taqsimlash.	Yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etgan muhandis va menejerlarni KPI hamda mukofotlar orqali rag'batlantirish, ratsionalizatorlik takliflarini qo'llab-quvvatlash.	Yangi mahsulotlar ulushi, har bir yo'nalish rentabelligi, quvvatlardan foydalanish va sifat ko'rsatkichlarini muntazam baholash.
Bozor diversifikatsiyasi	Hududiy, tarmoq va mijoz segmentlari kesimida maqsadli bozorlarni belgilash, davlat buyurtmasi, korporativ va xususiy segmentlar o'rtasida portfel muvozanatini ta'minlash.	Savdo, marketing va tender bo'linmalari faoliyatini integratsiya qilish, shartnomalar, logistika va mijozlar bilan ishlash jarayonlarini muvofiqlashtirish, to'lov intizomi xatarini kamaytirish.	Yangi mijoz jalb qilgan, yangi hududiy bozorga kirgan yoki uzoq muddatli shartnoma tuzgan xodimlarni moddiy va nomoddiy rag'batlantirish.	Bozorlar kesimida tushum, mijozlar konsentratsiyasi, debitor qarzlarni aylanishi, shartnomalar barqarorligi va qayta buyurtma koeffitsiyentini nazorat qilish.
Moliyaviy diversifikatsiya	O'z mablag'i, bank krediti, lizing, avans to'lovlari va sheriklik kapitali o'rtasida maqbul nisbatni belgilash, investitsiya va aylanma mablag'lar bo'yicha qarorlar qabul qilish.	G'aznachilik va moliya bo'linmalari orqali pul oqimlarini muvofiqlashtirish, banklar, investorlar va yetkazib beruvchilar bilan ishlash, likvidlik va foiz xatarlarini boshqarish.	Moliya menejerlarini arzon resurs jalb qilish, debitor qarzlarni qisqartirish va pul tushumini tezlashtirish ko'rsatkichlari asosida rag'batlantirish.	Likvidlik, qarz yuki, moliyalashtirish manbalari tarkibi, pul oqimlari barqarorligi va kapital qiymati ko'rsatkichlarini baholab borish.
Mehnat resurslari diversifikatsiyasi	Muhandis, texnolog, marketolog, iqtisodchi, IT mutaxassis va malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish.	Qayta tayyorlash, ichki rotatsiya, loyiha guruhlarini va outsorsing mexanizmlarini qo'llash, mehnat tanqisligi xatarini pasaytirish.	Ko'p funksiyali ko'nikmalar, malaka oshirish, mehnat unumdorligi va tashabbuskorlik uchun qo'shimcha haq va bonuslar joriy qilish.	Mehnat unumdorligi, kadrlar aylanmasi, malaka oshirish qamrovi, ish vaqtidan foydalanish va kompetensiyalar balansi bo'yicha baholash o'tkazish.



Texnologik diversifikatsiya	Zamonaviy qurilish texnologiyalari, BIM, avtomatlashtirish va energiya tejamkor yechimlarni joriy etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash.	Ishlab chiqarish, qurilish maydoni, IT va ta'minot bo'linmalarini yagona texnologik zanjirga bog'lash, joriy etishdagi texnik xatarlarni muvofiqlashtirish.	Yangi texnologiyadan samarali foydalangan va xarajatlarni qisqartirgan xodimlarni mukofotlash, raqamli ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlash.	Texnologiyalardan foydalanish darajasi, brak, quvvat sarfi, ish sikli davomiyligi va tannarxning pasayishini nazorat qilish.
Xomashyo manbalari diversifikatsiyasi	Mahalliy va tashqi yetkazib beruvchilar portfelini shakllantirish, asosiy materiallar bo'yicha muqobil manbalar va zaxira meyorlarini belgilash.	Xarid, ombor va logistika bo'linmalari o'rtasida muvofiqlashgan ta'minot tizimini tashkil etish, yetkazib berish uzilishi xatarini taqsimlash.	Ishonchli, arzon va sifatli xomashyo manbalarini jalb qilgan xarid menejerlarini rag'batlantirish, uzoq muddatli kontraktlar uchun bonus berish.	Yetkazib beruvchilar konsentratsiyasi, material sifati, yetkazib berish muddati, ombor aylanmasi va xarid narxlari dinamikasini baholash.
Innovatsion diversifikatsiya	Innovatsion mahsulot, xizmat va jarayonlar portfelini shakllantirish, bozor talabi va iqtisodiy samara asosida ustuvor innovatsiyalarni tanlash.	OTM, ilmiy markazlar va loyiha institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, pilot loyihalarni muvofiqlashtirish, innovatsiya xatarlarini boshqarish.	Patent, ratsionalizatorlik, yangi texnologiya yoki innovatsion material taklif qilgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.	Innovatsion mahsulotlar ulushi, joriy etilgan loyihalar soni, iqtisodiy effekt, tijoratlashuv darajasi va bozor qabul qilish ko'rsatkichlarini baholash.
Tashkiliy diversifikatsiya	Faoliyatni biznes-yo'nalishlar, loyiha ofislari va hududiy bo'linmalar kesimida qayta tuzish, vakolatlar va qaror qabul qilish chegaralarini belgilash.	Bo'linmalar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni tartibga solish, dublrovaniye funksiyalarni qisqartirish va boshqaruv iyerarxiyasini optimallashtirish.	Bo'linma rahbarlari va jamoalarini KPI, muddat, xarajat va sifat natijalari asosida rag'batlantirish, korporativ madaniyatni mustahkamlash.	Boshqaruv xarajatlari, qaror qabul qilish tezligi, ichki muvofiqlashuv sifati, ijro intizomi va funksional samaradorlikni nazorat qilish.
Vertikal diversifikatsiya	Ta'minot - ishlab chiqarish - qurilish - montaj - servis zanjirida qaysi bosqichlarni ichkilashtirish maqsadga muvofiqligini aniqlash va qaror qabul qilish.	Sho'ba, pudratchi va yetkazib beruvchilar faoliyatini yagona zanjirda muvofiqlashtirish, transaksion xarajatlar va uzilish xatarlarini kamaytirish.	Ichki kooperatsiyani kuchaytirgan, tayyorlov muddatini qisqartirgan va tashqi qaramlikni kamaytirgan rahbar va mutaxassislarni rag'batlantirish.	Ichki ta'minot ulushi, zanjir bo'yicha tannarx tejalishi, muddat qisqarishi, sifat barqarorligi va xizmat ko'rsatish samarasini baholash.
Gorizontal diversifikatsiya	Qo'shimcha va o'zaro bog'liq yo'nalishlar - pardozlash, injiniring, loyihalash, servis, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi xizmatlarga kirish strategiyasini ishlab chiqish.	Yangi yo'nalishlarni amaldagi savdo kanallari, brend va infratuzilma bilan bog'lash, bozor to'qnashuvi va resurs taqchilligi xatarini muvofiqlashtirish.	Kross-sotuvni oshirgan, yangi xizmat turini bozorga chiqargan va mijozga kompleks yechim taklif qilgan xodimlarni mukofotlash.	Qo'shimcha yo'nalishlardan olinayotgan tushum ulushi, marja, mijoz bazasi kengayishi, sinergiya natijasi va bozor ulushiga ta'sirini nazorat qilish.



Avvalo, mahsulot diversifikatsiyasini boshqarish korxonaning barqaror tushumi va rentabelligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Agar korxonada faqat bitta qurilish xizmati yoki cheklangan mahsulot turiga ixtisoslashsa, talab qisqarishi yoki narx raqobati kuchayishi uning moliyaviy natijalariga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun "Trest 12" AJda qurilish-montaj ishlari, ta'mirlash, injiniring va servis xizmatlari kesimida portfel yondashuvini qo'llash iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Bu yerda rejalashtirish funksiyasi qaysi mahsulot yoki xizmat turi yuqori marja berayotganini aniqlashga xizmat qilsa, tashkil etish funksiyasi mazkur yo'nalishlar bo'yicha resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini yaratadi. Motivatsiya orqali yangi mahsulotni joriy etishga qiziqish kuchaytirilsa, nazorat jarayonida yangi mahsulotlar ulushi, rentabellik va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi baholanadi. Natijada korxonada bir mahsulotga qaramlik pasayadi va tushum barqarorligi ortadi.

Bozor diversifikatsiyasini boshqarish ham qurilish korxonasining iqtisodiy barqarorligi uchun alohida ahamiyatga ega. "Trest 12" AJning davlat buyurtmalari, korporativ mijozlar va xususiy sektor bilan bir vaqtning o'zida ishlashi buyurtmalar portfelini muvozanatlashtirish imkonini beradi. Hududiy jihatdan bozorlarni kengaytirish esa mahalliy talab pasayganda boshqa segmentlar hisobiga tushumni saqlab qolishga yordam beradi. Bu jarayonda marketing, savdo va tender bo'linmalari o'rtasida muvofiqlashtirilgan boshqaruv talab etiladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bozor diversifikatsiyasi mijozlar konsentratsiyasi xavfini pasaytiradi, shartnomalar portfelini barqarorlashtiradi va debitor qarzlarni boshqarish imkoniyatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bozorlar bo'yicha alohida nazorat ko'rsatkichlarini joriy etish — tushum tarkibi, qayta buyurtma koeffitsiyenti, shartnomalarning uzoq muddatligi va to'lov intizomi — boshqaruv qarorlarining asosligini ta'minlaydi.

Moliyaviy diversifikatsiya qurilish tarmog'idagi xatarlarni yumshatishning eng muhim mexanizmlaridan biridir. Mazkur soha, odatda, kapital talabchan, aylanma mablag'larga ehtiyoji yuqori va loyihalarning pul tushumi vaqt bo'yicha notekis taqsimlanadigan tarmoq hisoblanadi. Shu sababli "Trest 12" AJ uchun moliyalashtirish manbalarini faqat bitta resursga bog'lab qo'ymaslik iqtisodiy jihatdan to'g'ri yondashuvdir. O'z mablag'lari, bank kreditlari, lizing, avans to'lovlari va sheriklik kapitali o'rtasida muvozanatni ta'minlash likvidlik xatarini pasaytiradi va moliyaviy mustaqillikni oshiradi. Bu yerda rejalashtirish funksiyasi kapital tuzilmasini optimallashtirishga xizmat qilsa, tashkil etish funksiyasi pul oqimlarini muvofiqlashtirish va banklar hamda investorlar bilan ishlashni nazarda tutadi. Nazorat bosqichida likvidlik koeffitsiyentlari, qarz yuki, foiz xarajatlari va kapital qiymati tahlil qilinishi korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Mehnat resurslari diversifikatsiyasi esa qurilish korxonasining institutsional moslashuvchanligini kuchaytiradi. Korxonada faqat ishchi kuchi emas, balki muhandis, texnolog, iqtisodchi, marketolog, IT mutaxassis va loyiha boshqaruvchilari kabi turli kasb egalari mutanosib rivojlanganda boshqaruv sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bu mehnat unumdorligini oshirish, vaqt yo'qotishlarini qisqartirish va yangi loyihalarga tez moslashish imkonini beradi. Qayta tayyorlash, ichki rotatsiya va ko'p funksiyali ko'nikmalarni shakllantirish orqali mehnat resurslari diversifikatsiyasini boshqarish korxonada kadrlar tanqisligi xatarini kamaytiradi. Motivatsiya jarayonida malaka va natijaga bog'langan ish haqi tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lsa, nazorat bosqichida mehnat unumdorligi, kadrlar aylanmasi, ish vaqtdan foydalanish va kompetensiyalar balansi kabi ko'rsatkichlar baholanishi zarur.

Texnologik va xomashyo manbalari diversifikatsiyasi qurilish sanoatida ishlab chiqarish xarajatlari va ta'minot uzluksizligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Texnologik diversifikatsiya doirasida BIM, avtomatlashtirish, energiya tejankor uskunalar va zamonaviy qurilish usullarini joriy etish korxonada ish siklini qisqartirish, brakni kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi. Xomashyo manbalari diversifikatsiyasi esa yetkazib beruvchilar sonini ko'paytirish, mahalliy va tashqi ta'minot o'rtasida muvozanatni ta'minlash, logistika tavakkalchiligini kamaytirish imkonini beradi. Bu ikki yo'nalish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, samarali boshqarilganda korxonada xarajatlar barqarorligi va ishlab chiqarish uzluksizligi kuchayadi. Nazorat funksiyasida material sifati, yetkazib berish muddati, ombor aylanmasi, texnologiyalardan foydalanish darajasi va energiya sarfi kabi ko'rsatkichlarni muntazam baholash iqtisodiy natijadorlikni oshiradi.

Innovatsion va tashkiliy diversifikatsiya korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilaydi. Innovatsion diversifikatsiya orqali yangi materiallar, raqamli yechimlar, xizmat formatlari va texnologik jarayonlar ishlab chiqilishi korxonaga yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Bunda OTM va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish, pilot loyihalarni yo'lga qo'yish va tijoratlashuv ko'rsatkichlarini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy diversifikatsiya esa biznes yo'nalishlar, hududiy bo'linmalar va loyiha ofislari o'rtasida vakolatlarni oqilona taqsimlashni anglatadi. Bu boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi, funksiyalar takrorlanishini qisqartiradi va ma'muriy xarajatlarni pasaytiradi. Iqtisodiy jihatdan ushbu ikki yo'nalishning uyg'unligi korxonada innovatsiyani joriy etish tezligini oshiradi va boshqaruv tizimining samaradorligini kuchaytiradi.

Vertikal va gorizontal diversifikatsiya "Trest 12" AJ uchun sinergetik o'sish manbai sifatida baholanadi. Vertikal diversifikatsiya ta'minotdan boshlab qurilish, montaj va keyingi servisgacha bo'lgan zanjirda ayrim bosqichlarni ichkilashtirishni nazarda tutadi. Bu korxonaga tashqi kontragentlarga qaramlikni kamaytirish, tayyorlov muddatini qisqartirish va transaksion xarajatlarni pasaytirish imkonini beradi. Gorizontal diversifikatsiya



esa pardoqlash, loyihalash, injiniring, servis yoki qurilish materiallari kabi yaqin yo'nalishlarga kirish orqali mijozga kompleks yechim taklif qilishga xizmat qiladi. Natijada bitta mijozga bir nechta xizmat turini sotish imkoni kengayadi, tushum manbalari ko'payadi va bozor ulushi mustahkamlanadi. Ushbu ikki yo'nalish bo'yicha boshqaruv funksiyalari to'g'ri tashkil etilsa, korxonada sinergiya effekti va umumiy rentabellik o'sishi kuzatiladi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan boshqaruv funksiyalari "Trest 12" AJda diversifikatsiyalashuvni stixiyali emas, balki maqsadli va iqtisodiy jihatdan asoslangan ravishda boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Diversifikatsiyaning har bir turi rejalashtirish orqali iqtisodiy maqsadlar bilan bog'lanishi, tashkil etish orqali resurslar va ijrochilar bilan ta'minlanishi, motivatsiya orqali inson omili faollashtirilishi va nazorat orqali natija baholanishi lozim. Ana shunday yondashuv qo'llanilganda korxonada tushum manbalari kengayadi, xarajatlar tartibga solinadi, tavakkalchiliklar taqsimlanadi va raqobatbardoshlik ortadi. Shu bois, "Trest 12" AJ uchun diversifikatsiyalashuvni boshqarish funksiyalarini amaliy KPI tizimi, raqamli monitoring va strategik qaror qabul qilish mexanizmlari bilan bog'lash iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston qurilish tarmog'ining so'nggi statistik dinamikasi tarmoqda o'sish mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu o'sish avtomatik tarzda barcha korxonalar uchun barqarorlikni anglatmaydi. Aksincha, 2025 yil yanvar-oktyabrda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushining 50,1 foiz, yirik qurilish tashkilotlari ulushining 24,9 foiz va norasmiy sektorning 25 foiz bo'lishi tarmoqda resurslar, bozorlar va boshqaruv imkoniyatlari juda notekis taqsimlanganini anglatadi. Demak, diversifikatsiyalashuv qurilish korxonasi uchun oddiy kengayish emas, balki notekis bozor tuzilmasida yashovchanlikni ta'minlaydigan iqtisodiy himoya mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qurilish sanoati korxonalari diversifikatsiyalashuvi zamonaviy sharoitda korxonaning o'sish strategiyasi bilan cheklanmay, uning barqarorlik, moslashuvchanlik va raqobatbardoshlik mexanizmiga aylanmoqda. O'zbekiston qurilish tarmog'ining 2024–2025 yillardagi tarkibiy va dinamik ko'rsatkichlari tarmoqda kengayish jarayoni davom etayotganini, biroq bu jarayon resurs, bozor va boshqaruv xatarlarini ham kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Shu sababli diversifikatsiyalashuvni mahsulot, bozor, moliyaviy, texnologik, xomashyo, mehnat, innovatsion, tashkiliy, vertikal va gorizontalar yo'nalishlarda uyg'unlashtiruvchi iqtisodiy mexanizmi shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Wan, W. P., Hoskisson, R. E., Short, J. C., Yiu, D. W. Resource-Based Theory and Corporate Diversification: Accomplishments and Opportunities // *Journal of Management*. – 2011.
2. Kwak, S. Impact of Business Diversification on the Business Performance of Construction Firms in the Republic of Korea // *Buildings*. – 2025.
3. Liu, G. Statistical Insights into Construction Industry Diversification: A Pathway for Sustainable Growth of Highway Enterprises in China // *Buildings*. – 2025.
4. Kook, S. H. Dynamic Technological Diversification and Its Impact on Firms' Performance // *Sustainability*. – 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2024 yil yakunlari bo'yicha YaIM ishlab chiqarilishi to'g'risida.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025 yil yanvar-oktyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025 yil yakunlari bo'yicha YaIM tarkibi.
8. Dehkanov, Sh. A. O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalari rivojlanishining asosiy tendensiyalari // *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*. – 2021.
9. Xaydarova, E. Sh. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*. – 2021. – № 6.
10. Uzakova, U. Qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish mexanizmining mazmuni va mohiyati // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2024. – 2(5). – B. 326–337.
11. Федяев, М. В. Особенности диверсификации в инвестиционно-строительных компаниях // *Современные тенденции в экономике и управлении: новый взгляд*. – 2012. – № 14-2. – С. 143–148.
12. Шамара, Ю. А. Формирование стратегии диверсификации в сфере строительства // *О некоторых вопросах и проблемах экономики и менеджмента: сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции*. – Красноярск, 2017. – С. 76–79.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>